| Nomozova Dilobar Suyun qizi | |
| Maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya pedagogikasining o'rni | 501 |
| Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich | |
| WKF karatechilarida musobaqaoldi stressini boshqarishda motivatsiya va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining ahamiyati | 505 |
| Novikova Angelina Veniaminovna, Kamolova Nilufar Davir qizi | |
| Ingliz tili ta'limida frazeologik birliklarni o'rgatishning lingvodidaktik asoslari..... | 510 |
| O'rinova Dildora Bekmahmatovna | |
| Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi | 519 |
| Raxmonov Baxtiyor Azzamovich | |
| 3-4-sinf tabiiy fan darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish | 523 |
| Rustamova Nilufar | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoniga moslashuvining psixologik xususiyatlari | 528 |
| Uzabayeva Venera Abatbayevna | |
| Distant oila farzandlarining psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar | 531 |
| Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi | |
| Музыкальные стили как средство развития эмпатии и социальной ответственности учащихся в образовательном процессе..... | 537 |
| Ахунова Умида Ойбековна | |
| Современные тенденции развития французского языка в условиях глобализации..... | 541 |
| Давронова Зульфия Бобоевна | |
| Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy ingliz tilida neologizmlarning manbai sifatida | 547 |
| Tursunxo'jayeva Shirin Farhod qizi | |
| Педагогические возможности STEAM-технологий в развитии детей дошкольного возраста..... | 551 |
| Тошматова Мукаррам Джумановна | |
| Национальный характер в изображении русскоязычных писателей Узбекистана | 554 |
| Чернова Татьяна Алексеевна, Эшонкулов Бектош, Махаматсодиқов Билолиддин | |



RAUF PARFI SHE'RIYATINI O'QITISHDA KEYSLARDAN FOYDALANISH

Nomozova Dilobar Suyun qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot o'qitishda keys-stadi metodini qo'llash hamda ushbu metodning mazmun-mohiyati xususida ma'lumotlar berilgan. Dastlab metodning mazmuni va kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tilgan, shuningdek, adabiyot darslarida ushbu metodni joriy etish bo'yicha metodistlarning ishlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, modern shoir Rauf Parfi she'rlari asosida keys savol-javob namunalari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: keys-stadi tarixi, keys-stadi mazmuni, taxminiy o'qitish sxemasi, keysni baholash mazmuni, keys-stadi metodining tarbiyaviy ahamiyati, Rauf Parfi she'rlari.

Abstract: This article provides information on the application of the case-study method in teaching literature and discusses the essence and significance of this method. First, the content of the method and its historical development are examined, followed by an overview of the works of methodologists concerning the implementation of this approach in literature classes. In addition, sample case-study questions and answers based on the poems of the modern poet Rauf Parfi are presented.

Key words: history of the case-study method, essence of the case-study method, approximate teaching framework, content of case assessment, educational significance of the case-study method, poems of Rauf Parfi.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение метода кейс-стади в преподавании литературы, а также раскрываются его сущность и основные особенности. Вначале освещаются содержание метода и история его возникновения, затем анализируются работы методистов, посвященные внедрению данного подхода в уроки литературы. Кроме того, представлены примеры кейсов в формате вопросов и ответов, разработанные на основе стихотворений современного поэта Рауфа Парфи.

Ключевые слова: история метода кейс-стади, сущность метода кейс-стади, примерная схема обучения, содержание оценки кейса, воспитательное значение метода кейс-стади, стихотворения Рауфа Парфи.

KIRISH

Bugungi kunda adabiyot darslarida o'quvchilarning tafakkurini yuksaltirish muhim masalaga aylandi. Bu borada xorij tajribalaridan samarali foydalanish maqsadida pedagoglar darslarda turli interaktiv metodlardan foydalanmoqdalar. Ammo ta'kidlash joizki, xorij tajribasining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash muhim masaladir. Shu maqsadda keys-stadi metodi va uni darslarda test-savol-javoblar shaklida qo'llash imkoniyatlari quyida ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Keys-stadi metodi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qilishi va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodning nazariy asoslari xorijiy olimlardan C. Christensen, W. Ellet va R. Yin tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, ular keys-stadini real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali amaliy bilimlarni shakllantirish vositasi sifatida baholaydilar. Shuningdek, Garvard universiteti tajribasida keys-stadi metodining talabalarda tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh. X. Doniyorova adabiyot darslarida yozuvchi hayoti va ijodini o'qitishda keys-stadi metodidan foydalanish yo'llarini ishlab chiqqan hamda metodni tayyorgarlik, amalga oshirish va tahliliy-baholash bosqichlari asosida qo'llashni tavsiya etgan. J. Yo'ldoshev, N. Muslimov va boshqa metodist olimlar ham interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini yoritib berganlar.



Biroq mavjud tadqiqotlarda keys-stadi metodining modern she'riyat namunalarini, xususan, Rauf Parfi she'rlarini o'qitishda qo'llanishi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda Rauf Parfi she'riyati asosida test va keys-savollar ishlab chiqilib, o'quvchilarning badiiy matnni tahlil qilish, obrazlar mohiyatini anglash hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Keys-stadi metodi ilk bor AQSHdagi Garvard universitetining huquq maktabida qo'llanilgan. U ta'limdagi muammoli o'qitish texnologiyalaridan biri sifatida qaraladi. Keys-stadi atamasidagi "keys" so'zi turli ma'nolarda izohlanadi. Ingliz tilidagi "case" so'zi "aniq holat", "amaliy vaziyat" ma'nolarini anglatadi^[6]. Ayrim manbalarda esa "yashik", "quti", "g'illof", "jild" ma'nolarida ham qo'llanadi^[9].

Ushbu metoddan aniq amaliy vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarga yechim topish maqsadida foydalaniladi. Bunda muammo tayyor holda berilishi ham, sun'iy ravishda yaratilishi ham mumkin. Bugungi kunda ta'limning barcha sohalarida, xoh aniq fanlar, xoh ijtimoiy-gumanitar fanlarda bo'lsin, keys-stadi metodi keng qo'llanilmoqda.

Chet el ta'limida keysga "haqiqiy hayotning bir parchasi" ("true life") deb ta'rif beriladi. Shuningdek, xorijiy ta'lim tizimlarida o'quv rejasining qariyb 25 foizini keyslar tashkil etadi. Keys asosida muammoni yechish orqali o'quvchilar modellashtirish, tizimli tahlil qilish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda munozara usullari yordamida o'z yechimlarini taklif etadilar.

Keys usulining mohiyati real vaziyatni tahlil qilishdan iborat bo'lib, uning tavsifi bir vaqtning o'zida nafaqat amaliy muammoni aks ettiradi, balki turli muammolarni hal qilishda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ma'lum bilimlar majmuasini ham yoritadi. Shu bilan birga, muammoning o'zi ham aniq yechimga ega bo'lmaydi. Ushbu texnologiyadan foydalanish o'quvchilarda kelajakdagi hayoti uchun muhim bo'lgan fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi: muloqot qilish qobiliyati, ijtimoiy faollik, o'z fikrini to'g'ri ifoda etish, boshqa insonlarning fikrini tinglay olish qobiliyati.

Bu metodning mohiyati shundan iboratki, o'quv materiali o'quvchilarga masala-muammo (keys) ko'rishida taqdim etiladi va bilim faol hamda ijodiy ish natijasida o'zlashtiriladi: mustaqil maqsad qo'yish, zarur ma'lumotlarni yig'ish, ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, kuzatish, gipoteza va xulosalarni ilgari surish, bilim olish jarayoni va uning natijalarini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish (1-jadval).

Keys usulidan foydalangan holda taxminiy o'qitish sxemasi:

| O'qituvchi | O'quvchilar |
|--|--|
| Vaziyatni rivojlantirish | Ishni qabul qilish |
| O'quv mavzusini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini tanlash | Adabiyot o'rganish |
| Dars rejasini ishlab chiqish | O'z-o'zini tayyorlash |
| Guruh ishlarida rahbarlik qilish | Ish mazmuning dastlabki muhokamasini tashkil etish |
| Yakuniy muhokamani tashkil etish | O'quv mavzusining materialini o'zlashtirish va topshiriqni bajarish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni o'rganish |
| Talabalar ishini baholash | Vazifaning yechimini taqdim etish va himoya qilish |
| | Boshqa ishtirokchilarning fikrini tinglash |

Har bir bosqich uchun metodologiya

1. O'qituvchi va talabalar tomonidan tayyorgarlik

Ushbu bosqichda o'qituvchi materialni mantiqiy tanlaydi va muammolarni shakllantiradi. Materialni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: kichik hajmdagi o'quv materiali tanlanadi, ma'lum bir tizim asosida ixcham joylashtirilgan o'quv materiali esa uning idrok etilishini osonlashtiradi.

2. Talabalarning keys bilan individual mustaqil ishi

Bu bosqichda talabalar keys mazmuni bilan mustaqil tanishadilar, muammoni tahlil qiladilar, zarur ma'lumotlarni izlaydilar hamda muammoning yechimi bo'yicha o'z fikr va xulosalarini shakllantiradilar.

3. O'rganilayotgan materialning o'zlashtirilishini tekshirish

Talabalar yangi materialni amaliy misollar yordamida mustaqil o'rganganliklari sababli ularning o'zlashtirish darajasini tekshirish zarurati tug'iladi. Bunda an'anaviy (og'zaki frontal so'rov, o'zaro savol-javob, kartochkalar bilan ishlash va boshqalar) hamda no'anaviy (test, reyting va boshqalar) usullardan foydalanish mumkin.

4. Mikroguruhlarda ishlash

Keys usulida mikroguruhlarda ishlash markaziy o'rinni egallaydi, chunki bu o'rganish va tajriba almashishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Kichik guruhlarda ishlaganda o'quvchilar soni 5 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'quvchilarda bir vaqtning o'zida hamkorlik, jamoaviylik (guruh ishlari o'qituvchiga emas, o'quvchilarga qaratiladi) va mas'uliyat tamoyillari shakllantiriladi.

Dars bosqichlari bo'yicha ishni baholash mezonlari:

1. Muammoni malakali hal qilish;
2. Muammoni hal qilishning yangiligi va o'ziga xosligi;
3. Nazariy qism taqdimotining qisqaligi va ravshanligi;
4. Muammoni hal qilish sifati;
5. Munozara etikasi;
6. Mikroguruhning barcha a'zolari faolligi ^[8].

Keys-stadi metodining tarbiyaviy ahamiyati

Keyslarning tarixi Suqrot davridan boshlanganligi ta'kidlanadi. Muallif ilm-fandagi aksariyat kashfiyotlar negizida tanqidiy keyslar yotishini qayd etadi. Doniyorova Sh.X. adabiyot darslarida "Yozuvchi hayoti va ijodini o'qitishda keys-stadi metodidan foydalanish yo'llari" nomli uslubiy qo'llanmasida adib O'. Hoshimov hayoti va ijodini o'rgatish usullarini ko'rsatadi.

Muallif keys-stadi metodini amalga oshiruvchi o'qituvchi quyidagi uch bosqichni qo'llashini ta'kidlaydi:

1. Tayyorgarlik bosqichi;
2. Keysni amalga oshirish bosqichi;
3. Tahliliy-baholovchi bosqich ^[2].

Ammo uslubiy qo'llanmada ko'proq keys-stadi metodining ta'rifi, mazmuni va uni amalga oshirish yo'llariga e'tibor qaratilgan. Asosiy obyekt sifatida O'. Hoshimov hayoti va ijodiga oid keyslar yoritilgan. Ushbu uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurti talabalariga mo'ljallangan.

Bugungi kunda yozuvchi hayoti va ijodidan ko'ra uning asari, ushbu asar orqali jamiyatga nima demoqchiligi, asar tilini tushunish hamda tahlil qila olish ko'nikmasi muhimroq, deb hisoblaymiz. Zero, adabiyot o'qitishning maqsadi ham "sog'lom e'tiqodli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlari uchun javob bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat" ^[7].

O'qituvchining sinfdagi o'quvchilar bilan dars jarayonini sifatli yo'lga qo'yishi uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlardan kelib chiqqan holda modern she'riyatni o'rganishda keyslardan foydalanishi ayni muddaodir. Bunda o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish yoki individual tarzda topshiriqlar berish ham mumkin.

Shuningdek, keys aniq vaziyatlarning yechimini topishga o'rgatar ekan, undagi muammoga topilgan javoblar yagona yoki ko'p variantli bo'lishi mumkin. Adabiyot darslaridagi keyslar ko'pincha ko'p variantli javoblarga mos keladi ^[1]. Shuningdek, bitta javobli keyslardan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida modern she'riyat asoschilaridan bo'lgan buyuk shoir Rauf Parfi she'rlari asosida keys-savollar va javoblar namunalari taqdim etiladi. Avvalo, o'quvchilarga aniq bo'lishi uchun she'rning o'zi va uning oxirida shu she'rga oid keyslar tayyorlandi. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra ular 3, 2 va 1 ball bilan baholandi.

1. Yana qaytib keldim...

*Qaytib keldim yana. Chang to'zgan
Yo'limizni sog'indim, ona.
Tom ustida maysalar o'sgan
Uyimizni sog'indim, ona.*

*Aziz dargoh ostonasida
Sizni qalbm bilan quchayin.
To'yib-to'yib sopol kosada
Muzdek quduq suvin ichayin.*



Har bir narsa yaqindir menga,
Har bir narsa menga qadrdon.
Qarab qoldingizmi yo'limga,
Issiq nonlar uzib tandirdan?

Koyimangiz meni bu safar,
Unutdi deb uyni, dalamni,
Ne chora bor, dil yonsa agar,
Dil sog'insa turkiy olamni.

O, qishloqning munis chiroyi,
Achchiq piyoz to'g'rayin o'zim.
Dil sog'inib yig'ladi doim,
Hozir, mayli, yig'lasin ko'zim.

Targ'illanib bormoqda osmon,
Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.
Aytingiz-chi, bormi sog'-omon,
Shahlo ko'zli mening targ'ilim?

Og'ushimda zangori sezgi,
Kiprigimda suyuq hayajon.
Ko'zlarimda yumaloq sevgi,
Salomatman men ham, onajon.

Qaytib keldim yana. Chang to'zgan
Yo'limizni sog'indim, ona.
Tom ustida maysalar o'sgan
Uyimizni sog'indim, ona.

1. **She'rd a qanday tuyg'u ustuvorlik qilgan?** (3 ball)
 - A) Sog'inch
 - B) Kuzatish
 - C) Mehribonlik
 - D) Ranjish
 (Sog'inch ustuvorlik qilgan.)
2. **"Turkiy olam" deganda shoir nimani nazarda tutgan?** (3 ball)
 (Qishloqni, qishloq odamlarini.)
3. **She'rd a eng ko'p qaysi badiiy san'at turidan foydalanilgan?** (3 ball)
 - A) O'xshatish
 - B) Metafora
 - C) Tajnis
 - D) Jonlantirish
 (O'xshatish: muzdek quduq suvi, shahlo ko'zli targ'il, suyuq hayajon, zangori sezgi, yumaloq sevgi.)
4. **Targ'il qanday rangni ifodalaydi?** (2 ball)
 - A) Yo'l-yo'l sarg'ish va qoramtir
 - B) Yo'l-yo'l sarg'ish va oq
 - C) To'q malla va oq
 - D) To'q malla va qora
 (Yo'l-yo'l sarg'ish va qoramtir.)
5. **"Targ'illanib bormoqda osmon" kunning qaysi paytini ifodalaydi?** (2 ball)
 (Kun botish mahali.)
6. **"Kiprigimda suyuq hayajon" misralari qanday holatni anglatadi?** (2 ball)
 (Ko'z yoshi, yig'i.)
7. **Shoirning "achchiq piyoz to'g'rash"ining sababi nima?** (2 ball)
 (Shu bahonada yig'lab olish, ko'z yoshlarini ko'rsatmaslik.)

8. “Oppoq hidga to‘lmoqda bag‘rim” deganda shoir qanday hisni nazarda tutgan? (3 ball)

- A) Umidvorlik
- B) Quvonch
- C) Hasrat
- D) Hech narsa his qilmayapti
(Quvonch, chunki qadrdon uyiga qaytganidan xursand.)

2. **Turkiston yodi**

*Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l,
 Dalalar yastanib yotar ko‘k kabi.
 Tig‘lab xotiramni osmon – cheki yo‘q,
 Tizginsiz bu shiddat, kenglik asabi.*

*Bu kenglikda o‘ylar meni g‘ijimlar,
 Ul o‘z qofiyasin sudrab keladir.
 Qancha qochsang, shuncha qilgay hujumlar,
 O‘q singari xotiramni tiladir.*

*Tegramda zich havo – ona Turkiston,
 Yorgay tomirimni ko‘r hayajonim.
 Bu maydon ichinda men to‘kmagan qon,
 Mening uni deya ayagan jonim.*

*Yana yiroqlarga chorlaydi moziy,
 Vatan tushunchasi kelar yetaklab.
 Ayirilgan, xo‘rlangan ulus ovozin,
 Shoirning beshigi aytar ertaklar.*

*Yassaviy maqbari mung‘aymish mag‘rur,
 Tovushga aylandi har bir g‘isht rangi.
 “Dunyo mening”, deganlar... Nido kelur,
 “Karkas qushdek...” Qadim so‘zlar jarangi.*

*“Yolg‘on da‘vo qilganlar...” so‘zlar shoir,
 “Oqni qaro deganlar...” Ayting, kimlar?!
 Maqbara boshimga yiqilar hozir,
 Yana tovush: “Harom yegan hokimlar...”*

*Parchin-parchin bo‘ldi yodim simlari,
 Simlar – ko‘zlarimga mil tortgan chizg‘u.
 O‘tgan ulug‘larni eslayman barin,
 Xotirotni mozori – Turkiston mangu.*

*Kecha sodiq o‘g‘ling o‘tdi dunyodan,
 Saxiy inson edi, u shoir edi.
 Sanchilib yashaydi bir umr yodda,
 Ketayotib: “Men yig‘lab bo‘ldim”, dedi.*

*Yig‘la endi, ko‘zim, sen-da yig‘lab ol,
 To‘ysin ko‘z yoshingga bu turkiy sitam.
 To‘ysin, Vatan yodi chidar bermalol,
 Ey sabr daraxti, qutlug‘ Turkiston!
 Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l. [4]*

1. **She‘r mavzusi nima haqida?** (3 ball)

- A) Turkiston shahri haqida
- B) Yassaviy haqida
- C) O‘tmish haqida
- D) Vatanning ayanchli ahvoli haqida



(Vatanning ayanchli ahvoli haqida. Rossiya bosib olgunga qadar biz yashagan hududlar Turkiston, Turon deb atalgan. Turkiston deganda shoir aynan shuni nazarda tutmoqda. Ya'ni haqiqiy ozod Turkistonni ko'rish orzusi, mustamlaka davridagi og'ir ahvoldan kuyunib yozilgan.)

2. "Shoirning beshigi aytar ertaklar" misrasida qanday badiiy san'at qo'llanilgan? (2 ball)

- A) Tashxis
- B) Tajnis
- C) Alliteratsiya
- D) Tazod

(Tashxis. Insonning ertak aytishi yoki alla aytishi beshikka ko'chirilgan.)

3. "Simlar – ko'zlarimga mil tortgan chizg'u" satrlarida shoir nimani nazarda tutgan? (3 ball)

(Ko'zlar go'yoki mil tortilgandek hech narsani ko'rmasligidan azoblanmoqda. Ya'ni istibdod davrida haqiqatni ko'ra olgan, erkinlikni istagan insonlar ham go'yo "ko'zi ko'r, qulog'i kar" yashashga majbur edi. Bu ahvol qalbi uyg'oq insonlar uchun og'riqli bo'lgan. Mil – uchi ingichka, keskir temir asbob (tarixda qizdirilib, kishi ko'zini ko'r qilish uchun ishlatilgan). Masalan: "Bobur darvozadan kirsin, keyin tuttirib, ko'ziga mil tortmoq kerak" (P. Qodirov, "Yulduzli tunlar").)

4. She'rdah Ahmad Yassaviy hikmatlari nima uchun keltirilgan? (3 ball)

- A) Ahmad Yassaviy hikmatlarining mazmuni vatanparvarlik ruhida bo'lganligi uchun
- B) Hikmatlar diniy mazmunga ega bo'lib, din yo'lida sobitqadam bo'lishga undash uchun
- C) Haqiqatni oshkora aytish mumkin bo'lmaganligi sababli, hikmatlar vositasida o'z fikrini dalillamoqda
- D) Xalqni yolg'on gapirmaslikka, harom yemaslikka, mol-dunyoga ruju qo'yishdan qaytarish maqsadida foydalanilgan

(Haqiqatni oshkora aytish mumkin bo'lmaganligi sababli, hikmatlar vositasida o'z fikrini dalillamoqda. "Dunyo mening deganlar...", "Karkas qushdek...", "Yolg'on da'vo qilganlar...", "Oqni qaro deganlar...", "Harom yegan hokimlar..." kabi satrlar orqali shoir o'z davridagi illatlarni ramziy tarzda ochib bermoqda.)

5. She'rdah qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan? (3 ball)

- 1) Metafora
- 2) Sifatlash
- 3) O'xshatish
- 4) Jonlantirish
- 5) Tazod
- 6) Tajnis
- A) 1, 3, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 6
- C) 1, 2, 3, 5, 6
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

(Metafora – dalalar yastanib yotar;

Sifatlash – ko'k kabi yastanib yotar;

O'xshatish – o'ylar o'q singari;

Sifatlash – ko'r hayajon;

Jonlantirish – maqbara mung'aymish;

Tazod – mung'aymish – mag'rur;

Tajnis – simlar:

sim – sim-siyoh;

simillab – davomli ravishda og'riq berish.

(Ya'ni, xotirasining parchin bo'lagidek ranglari sim-siyoh qoralikka yuz tutmoqda, hamma narsani bilib turib, haqiqatni ayta olmaslik simillab og'riq bermoqda. Parchin (fors.) – me'morlik bezaklarida ishlatiladigan sirlangan sopol taxtachalar; turli ranglarda sirlanishi bilan koshinlardan farq qiladi.)

O'xshatish – Xotirot mozori, sabr daraxti – Turkiston.

Savollar

1. Turkistonni shoir nimalarga o'xshatmoqda? (2 ball)

(Xotirot mozori, sabr daraxti.)

2. "Maqbara boshimga yiqilar hozir..." misralari bilan shoir qanday kayfiyatni bayon qilmoqda? (3 ball)

- A) Ilojsizlik
- B) Sog'inch
- C) Hayrat
- D) Tushkunlik

(Ilojsizlik. Ya'ni shoir maqbara qarshisida o'lkaning shonli tarixini ko'z oldiga keltirar ekan, ayni damda buni baralla aytish imkoni yo'qligini angelaydi.)

3. **“Bir umr yodda sanchilib yashash...” satrlaridan qanday mazmun anglaysiz?** (2 ball)

(Unutilmaydigan, Vatan uchun nimadir qila olgan inson yodi bu dunyoni tark etgandan keyin ham xotiralarda abadiy yashaydi.)

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarning javoblari biz bergan qavs ichidagi javoblar bilan bir xil bo'lmasligi mumkin. Ammo mazmunan o'xshash javoblar ham to'g'ri deb qabul qilinadi. Bu kabi testlardan mavzu oxirida mustahkamlash, bo'shliqlarni to'ldirish va bilimlarni tekshirish maqsadida foydalanish dars mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi. O'qituvchi ham xato javoblarni tahlil qilish orqali qaysi o'rinlarda tushunmovchilik ko'proq yuzaga kelganini aniqlab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. - Toshkent: Bookmany Print, 2024. - 107 b.
2. Doniyorova Sh.X. Yozuvchi hayoti va ijodini o'qitishda keys-stadi metodidan foydalanish yo'llari: uslubiy qo'llanma. - Jizzax, 2020.
3. Kompy.info. Keys (Case) atamasining lug'aviy ma'nolari. Elektron manba. URL: <https://kompy.info>
4. Parfi R. Saylanma. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi.
5. Qodirov P. Yulduzli tunlar. - Toshkent: Sharq nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
6. Tolibov S. Keys-stadi innovatsion o'qitish texnologiyasi sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. - 2023. - Vol. 3, № 5.
7. Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi (1–11-sinf). - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2020. - 13 b.
8. Urok.1sept.ru. Keys-stadi metodidan foydalanish va baholash mezonlari. Elektron manba. URL: <https://urok.1sept.ru>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.